

“O’zbek tilida Avestizmlar” nomli monografiya nashr etildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma’mun akademiyasi tomonidan “O’zbek tilida Avestizmlar” nomli monografiya nashr etildi. Monografiyada o’zbek tili lug’at qatlamida saqlanib qolgan “Avesto”ga oid so’zlar, komponentlar, ularning o’ziga xos ma’nolari, xususiyatlari, fonetik shakli, tarqalish areali, genezisi aniqlangan.



Mazkur monografiya o’zbek tili tarixi, qadimgi turkiy til, etnografiya, manbashunoslik, tarix kabi sohalarda qo’llanadi.

Tadqiqotning o’ziga xos xususiyati, unda ma’lum bir avestoviy so’zning eng qadimiy tillar bilan qiyoslangan tarixiy shakllari, eng qadimgi yozuvlardagi imlosi keltirilgan. Ayrim komponent holida saqlanib qo’lgan so’zlarning tarixiy shakllari tiklangan.